

**“JANE EYRE” ROMANIDA TASVIRLANGAN AXLOQIY MUAMMO,  
GENDER VA TENGLIK MASALALARI**

*Darvishova Gulchehra Kenjabayevna*

*PhD in Philology,*

*The University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan*

**Annotation:** This article focuses on the issues of gender, marriage, equality and moral problems in the novel “Jane Eyre” by Charlotte Bronte. “Jane Eyre” is often described as a feminist novel due to its extensive focus on gender issues. Through the eyes of a female first person narrator, Bronte provides an insightful testimony of how women of her times have to fight for equality and recognition in the oppressive patriarchal world. A various kinds of repression which was familiar to many Victorian women are outlined in the novel by the author as well.

**Key words:** Victorian period, moral problems, gender and equality, patriarchal society, repression, fight, oppose.

Ingliz adabiyotining ayol yozuvchilari jahon adabiyoti rivojiga o'zlarining katta ta'sirini ko'rsatganlar. Ingliz romanshunoslari hisoblangan opa-singil Bronte xonimlari ham adabiyotda ulkan badiiy meros qoldirganlar. Sharlotta Bronte ularning orasida eng ko'zga ko'ringanlaridan biri hisoblanadi.

“Jeyn Eyre” Sharlotta Brontening birinchi, shuningdek, ayollarning jamiyatdagi mavqeiga zamonaviy qarashlarni aks ettiruvchi eng kuchli va ommabop romandir. “Jane Eyre” romani kitobxonlarga katta qiziqish va zavq bag'ishlaydigan shohasar hisoblanadi. U 1847 yilda Viktoriya davrida yaratilgan. Viktoriya davri adabiyoti 1836 yildan 1901 yilgacha hokimiyatda qirolicha bo'lgan Viktoriya davriga to'g'ri keladi, bu davr Buyuk Britaniyaning eng yorqin tarixidir. Bu davr erkaklar nazorati ostida va erkaklar boshqaradigan davr bo'lgan. Ijtimoiy holati past darajadagi ayolning munosib hayot kechirishi yoki yaxshi turmush qurishi imkonsiz edi. Ijtimoiy tuzilish insonning ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Patriarxal jamiyatda ayollar kamsitib kelingan. Shuningdek, ushbu davrda ayol yozuvchilar jabrlangan ayollar xaqida qalam tebratgan va “Jane Eyre” ham eng ta'sirli romanga aylangan.

“Jane Eyre” romanida ko'pincha gender masalalariga katta e'tibor qaratilganligi sababli feministik roman sifatida tasvirlanadi. Asarda Bronte ayolning ilk hikoyachisi nigohi bilan o'z davridagi ayollarning zolim patriarxal dunyoda tenglik va e'tirof uchun kurashganliklari yaqqol tasvirlab beriladi. Ushbu romanda Jane ko'pgina Viktoriya ayollari uchun tanish bo'lgan turli xil qatag'onlarga qarshi turadi.

Ammo tashqi qatag'onga faqatgina Jane duch kelmaydi. Ayol sifatida, u muayyan tarzda o'zini tutishi - itoatkor, xushmuomala va kamtar bo'lishi kerakligi

kutiladi va uning shaxsiyatining boshqa tomonlarini ifoda etish nomunosib va qo'pol deb qabul qilinadi. Shuning uchun, u bolaligidanoq o'z ehtirosli his-tuyg'ularini jilovlashga harakat qiladi. Roman davomida u o'z his-tuyg'ularini boshqarishni va ichki ehtiroslarini tiyishni o'rganadi, bu zo'ravonlikka, xo'rlanishga va oxir oqibat muhabbatga duchor bo'lganida juda qiyin vazifa ekanligini isbotlaydi. Boshida, Jane hali bolaligida amakivachchasi John tomonidan kitob o'qiganligi uchun jazolanganida, u duch kelgan adolatsizlikka jon jahdi bilan isyon ko'taradi va qarshi chiqadi.

Bolaligida Jane romanining bosh salbiy qahramoni - janob Brocklehurst bilan uchrashadi, u erkak zolimligi va ustunligining haqiqiy vakili bo'lib, u qizlar uchun maktab boshlig'i sifatida o'z kuchini o'quvchilar hamda ayol o'qituvchilarning ikkalasini ham taxqirlash va qo'rqitish orqali namoyish etadi. Biroq, Janening Lowood maktabidagi yoqimsiz va qalbi yaralangan holda qolishi u yerda topilgan hissiy do'stlik bilan yumshatilgan. Jane birinchi marta Lowoodga kelganida, sovuqdan va ochlikdan azob chekib, o'z hayoti uchun qo'rquvni boshdan kechirgan paytda, unga mehribon o'qituvchisi, Miss Temple va boshqalar yordam berishadi, shuningdek, yosh o'quvchi Helen Berns, Janega ayollar sevgi, ishonch va hamjixatlik orqali zulmga, jaholatga qarshi qanday kurashish mumkinligini namoyish etadi. Ushbu yangi tushuncha Janega Helenning emotsional o'limi bilan ajralib turadigan Lowoodda sakkiz yil davomida yashashga yordam beradi.

U shaxsiy uy o'qituvchisi (guvernantka) bo'lish uchun maktabni tark etganida, Jeyn noma'lum bir dunyoda o'zini yana bir bor yolg'iz his qiladi va u uni nima kutayotganini bilmaydi. U Thornfield Hallga ya'ni janob Rochesterning jajji qizi Adelning shaxsiy uy o'qituvchisi bo'lish uchun qolishi kerak bo'lgan uyga yetib kelganida, janob Rochester hali uyiga kelmagan edi. U uchrashadigan inson janob Rochester ekanligini bilmasa ham, ularning ilk uchrashuvi boshidanoq kelajakdagi munosabatlarning jo'shqinligini ko'rsatib turardi.

Devisning ta'kidlashicha, ushbu sahnada Jane moslashuvchan va chidamli, Rochester esa keskin va ehtiyotkor bo'ladi, u Janening savollariga sinchkovlik bilan javob beradi va Jane berilgan ba'zi buyruqlarga bo'ysunadi va ba'zilariga qarshilik ko'rsatadi.

Garchi Edvard Rochester Janening xo'jayini bo'lsa-da, unga nisbatan yuqori mavqega ega bo'lsa-da, ularning munosabatlari tobora rivojlanib borayotgan do'stlikka asoslanadi. Jane uchun Rochester asosan intellektual suhbat qura oladigan yagona shaxs bo'lib, ular davomida bir-birlariga qarshi chiqishadi. Rochester Janening aql-idrokiga va jasoratiga juda qiziqadi, chunki u itoatkor xodim bo'lsa ham, uning oldida o'z fikrlarini aytishdan qo'rqmaydi va u nima uchun bunday bo'lishi kerakligiga hech qanday sabab ko'rmaydi – axir u “mustaqil irodali ozod inson” edi. Ular qo'qqisdan duch kelib qolgan vaqtlar mobaynida Jane o'z xo'jayinini yoqtirib qola boshlaydi, Rochesterga kelsak, kitobxonlar Janening ko'zlari bilan qaraganlarida u nimani his

qilishlarini bilishmaydi va u aslida janob Rochester sevgisidan umid qiladi, lekin u chinakam ro'y berishi mumkinligiga ishonmaydi. Uning his-tuyg'ulari juda kuchli va ehtirosli bo'lib, u unga erishib bo'lmaydigan muhabbat va ishtiyoqni orzu qiladi, ayniqsa Miss Ingram janob Rochesterning bo'lajak turmush o'rtog'i ekanligi da'vo qilinganda. Jane bu ma'lumotdan ko'ngli qoladi va xo'jayinining to'yidan keyin u Thornfield Hallni butunlay tark etishga majbur bo'lishiga ishonadi. Rochester buni tasdiqlaydi va Irlandiyada Jane uchun yangi ish topgani haqida xabar beradi. Shu bilan birga, u Janega bo'lgan his-tuyg'ularining mohiyati nimada ekanligini ochib beradigan ichki kechinmalari xaqida so'zlaydi:

Ba'zida men senga nisbatan g'alati tuyg'ularni his qilaman - ayniqsa yonimda bo'lganingda, hozirgiday: xuddi chap qovurg'alarim ostida o'ta mustahkam va uzilmaydigan biror bir ip bordek, xuddi sening kichkina qovurg'alarining uzra shu ipga bog'lab qo'yilgandekman. Men bu ikkimizning o'rtamizdagi rishta uzilib ketishidan qo'rqaman. Senga kelsak, sen meni unutib yuborgandursan.

Janening boshi qotib qolgan va mushkul ahvolda edi, lekin baribir janob Rochester Ingram xonimga uylanishiga ishonardi va shu sababli u o'zining xo'jayiniga bo'lgan his-tuyg'ularini ayta olmay, uning yonida qololmaydi. Asarning shu yerida muallif, ehtimol, butun romanning eng iqtibosli nutqini taqdim etadi. Bu Brontening ayollarga qarata aytilgan so'zlaridir, chunki u ayollar ham erkaklar kabi his-tuyg'ularini namoyon etayotganini va erkak bilan ayollarni tenglashtirganligini ko'rsatmoqda: Sizningcha, mening qolishim siz uchun hech narsa emasmi? Meni hissiz bir mashina deb o'ylaysizmi?

Chunki meni kambag'al, sodda, tushunarsiz, va kichkinagina qalbsiz va yuraksiz inson deb o'ylaysizmi? Siz noto'g'ri o'ylaysiz! - Men ham siz kabi tirik jonman, menda ham qalb, yurak bor! Agar Olloh meni biroz go'zallik va katta boylik bilan siylagan bo'lsa ham, xuddi hozirgidek sizni tark etishim qiyin bo'lganidek, sizdan voz kechmagan bo'lar edim. Men hozir siz bilan urf-odatlar va udumlar yoki jonsiz tana orqali emas, balki qalbm va ruhiyatim ila siz bilan gaplashayotgandekman.

Edvard Rochester, ularning tengligini inqilobiy ravishda - nafaqat Jane ayol bo'lganligi uchun, balki uning oddiy xizmatkor va jamiyatda hech qanday mavqega ega bo'lmagan sod

da, kambag'al qiz ekanligini tan oladi. Viktoriya jamiyati me'yorlarida Jane deyarli oddiy guvernantkadan boshqa hech kim emas edi. Biroq, Rochester Janeni shaxs sifatida bildi va shu bilan uning fazilatlarini ko'z oldida keltirdi, u hatto Janega (va kitobxonlarga), nega u Janeni o'z tengdoshi deb bilishini va u qanday qilib bunday jasoratli ayolni hech uchratmaganligini tushuntirib beradi:

Men hech qachon senga o'xshash insonni uchratmadim. Jane: siz meni mamnun qilasiz va ko'nglimni ko'tarasiz - siz taslim bo'lganday tuyulasiz, menga sizning xushmuomalaligingiz yoqadi va bu yuragimni hayajonga soladi.

Va nihoyat u o'zining oxirgi taklifida sevgisini va ularning tengligini tan oladi: «Mana mening q'allig'im, chunki u mening tengim va bebaho qadrdonim. Jane, menga turmushga chiqasanmi?»

Endi Jane qiyin vaziyatga tushib qoladi- bir tomondan, u Edvard Rochesterga bo'lgan muhabbatini qadrlaydi va sevilganidan xursand bo'ladi; boshqa tomondan, u o'zining ijtimoiy mavqeini o'ylaydi (doimo xonim Fairfax bu xaqida eslatib turadi) va u o'z tengquri bilan turmush qurishni xohlaganligi sababli bu tengsizlikdan xavotirda edi. Shu bilan birga, Jane bunday nikohda mustaqilligini yo'qotib qo'yishdan qo'rqardi. Sharlotta Bronte, Jane va Edvard o'rtasidagi tenglik juda mukammal va hech qanday shartlarsiz bo'lishini istaydi va shu tariqa u bu maqsadga erishish uchun juftlikni ajratadi. Janob Rochester allaqachon uylanganligi xaqidagi sir fosh bo'lgandan so'ng, Janega uning ma'shuqasi bo'lishni taklif qiladi, bu Janeni ancha xaqorat qilish bilan birga, unga juda ko'p ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Jane bu taklifni rad etadi va Thornfield Hallni boshqa ish topish maqsadida tark etadi. Qiyin vaziyatda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati aslida romanning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi va bu ayollarda o'zlari xohlagan huquqlarni qo'lga kiritish imkoniyatini oshiradi.

Keyinchalik Jane boshqa sinovlarga duch keladi, Seint-John va uning singlisi birgalikda Janeni jismoniy va ruhiy jihatdan aziyat chekkan holda uylariga kelganida uni qutqaradi. Seint-John unga uylanishni hamda u bilan Hindistonga borishni taklif qiladi. Bu Jane uchun juda yaxshi yechim bo'lardi - u missioner sifatida maqsadli ish bilan shug'ullanib, hurmatli eri bo'lgan holda dunyo bo'ylab sayohat qilish va dunyoni kashf etish imkoniyatiga ega bo'lardi. Unga aslida bitta sevgidan boshqa Rochester bera olmagan hamma narsani taklif qilishadi. Shunday qilib, u Seint-Johnga turmushga chiqa olmadi, chunki sevgi uning uchun bir xil ahamiyatga ega edi va sevgisiz turmush qurish mumkin emas edi.

Oxir-oqibat, Jane Rochester bilan uni "chaqirganini" eshitganidan keyin yana birga bo'lishadi. Endi u katta miqdordagi pulni meros qilib olgandan keyin u ijtimoiy jihatdan maqbul mavqega ega va aksincha, Rochesterning ustunligi uning uyi yoqib yuborilishi va jarayon davomida qo'l va ko'zini yo'qotishi tufayli Rochesterning ustunligi pasaymoqda. Endi ular xaqiqatan ham teng va o'zaro bog'liq edi. Bundan tashqari, Rochesterning rafiqasi yong'in tufayli olamdan o'tadi va u endi qonuniy ravishda Janega uylanishi mumkin edi.

Shunday qilib, Sharlotta Bronte, o'z davrining barcha ziddiyatlari va qat'iy urf-odatlariga qarshi chiqib, bir-birini topa olgan ikki inson o'rtasida nihoyat teng nikohni tasvirlashga muvaffaq bo'ldi. U odatdagi oddiy stsenariyni o'z zamonida asos bo'lib kelgan axloqiy muammolar, gender va tenglik masalalarini qo'llash orqali yanada keskinroq va o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bronte, Anne. "Author's Preface to the Second Edition," in Bronte, The Tenant of Wildfell Hall, xi-xiv. London: Harper Press, 2011.
2. Bronte, Charlotte. "Preface to the Second Edition," in Brontë, Jane Eyre, xiii-xv. London: Harper Press, 2010.
3. Brantlinger, Patrick. Victorian Literature and postcolonial studies. Edinburgh University Press, 2009.
4. Chesterton, G. K. The Victorian age in literature. (2nd ed.). London: Oxford University Press, 1966.
5. Bronte, Charlotte. The Professor. London: Harper Press, 2012.
6. Egamberdieva G. M. Funkcii epitetov v «Lesnoj kapeli» MM Prishvina. XIV VINOGRADOVSKIE CHTENIYA (Tashkent, 16 maya 2018 goda). Sbornik nauchnyh trudov Mezhdunarodnoj nauchno-prakticheskoy konferencii.– Ekaterinburg: Ural'skij gosudarstvennyj ekonomicheskij universitet. 2018.–S. 101-104 //XVI Виноградовские чтения.-Екатеринбург-Ташкент. – 2020. – С. 135-138.
7. Умарова Ф. З. Готовность педагога к личностно-ориентированному образовательному процессу в школе //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2010. – Т. 8. – С. 385-387.
8. Shirinova, N. (2018). USING GAMES IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY FOR STUDENTS OF ENGINEERING. Irrigatsiya va Melioratsiya, (3), 89-92.
9. Магдиева, С. С., & Латипов, О. Ж. (2012). Русский язык. Методическое руководство для учителей лицеев и колледжей по всем направлениям специальности.
10. Раджабов, Н. Н., & КЎРИНИШЛАРИ, Ў. ORIENSS. 2022. № Special Issue 26. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-tilida-unli-fonemalarning-pozitsion-k-rinishlari> (дата обращения: 10.10. 2023).
11. Эркаев, Э. Т. (2008). Бўлажак чет тил муаллими таълимида қўлланадиган таржима машқларининг лингводидактик таснифи: Пед. фан. ном.... дис. автореферати. Тошкент.–2008.–139 б.
12. Ширинова, Н. (2023). ҲАРБИЙ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ КУРСАНТЛАРИНИНГ БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА “ФАОЛЛИК” ТУШУНЧАСИ ТАЛҚИНИ. MATERIALLARI TO’PLAMI, 330.
13. Кучкаров, В., & Иканова, Л. (2022). THE ROLE OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE PROFESSIONAL ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 3(2).
14. <http://journals.openedition.org/eng>